

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING QUR'ONI KARIM TARIXIGA OID MAQOLASI

1. Nosirjonov Faxriddin Muxiddin o'g'li

2. M.M.Agzamova

1. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi

Respublika yosh olimlar kengashi a'zosi

E-mail: hazratibobur@gmail.com

2. Ilmiy rahbar

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7742381>

Annotatsiya: Maqolada jadid adabiyotining yirik namoyondasi, muftiy Mahmudxo'ja Behbudiyning Qur'oni Karim tarixiga oid "Qur'oni Karim tarixiga bir nazar" nomli maqolasi va Qur'on ilmlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'z: Mahmudxo'ja Behbudiy, Qur'oni Karim, muftiy, "Qur'oni Karim tarixiga bir nazar", ro'yoyi sodiqa, vahiy, "Oyina", "O'qu", 23 yil, 40 yosh, Ubay bin Ka'b, Umar, Usmon, Ali, sahoba. Qur'oni Karim islom dinining ilohiy kitobidir. Islom dini ta'limotini o'rganish uchun avval Qur'onga murojaat qilinadi. Hadisi sahriflarda mo'min-musulmonlarni Qur'oni Karimni o'rganishga targ'ib qilingan. Jumladan Usmon (r.a.) dan rivoyat qilingan quyidagi hadisda shunday keltiriladi: "Nabiy (s.a.v): "Yaxshilaringiz - Qur'onni o'rganganlaringiz va uni o'rgatganlaringizdir", dedilar". (Buxoriy rivoyat qilgan). Bugungi kunda yurtimizda ham O'zbekiston musulmonlar idorasi tomonidan Qur'on va tajvid kurslarining tashkil etilgani mo'min-musulmonlarni quvontirdi. Bu kabi islohotlar yurtboshimizning sa'y-harakatlari, tinch va farovon yurtimiz, mustaqilligimiz tufayli amalga oshirilib kelmoqda. Mustaqillik yillaridan oldin Qur'on ta'limiga yo'l qo'yilmagan. Aynan shu kabi jarayonlarni Mahmudxo'ja Behbudiy yashab ijod qilgan davrlarda ham kuzatish mumkin. Shunday bo'lsada, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Qur'oni Karim tarixiga bir nazar" nomli maqolasi 1915-yilning 30-yanvarida "Oyina" jurnalida chop etilgan. Og'ir va tahlikali davrda yashab turgan bo'lishiga qaramay, Mahmudxo'ja Behbudiyning Qur'oni Karim haqida maqola chop etishi ulkan jasorat va fidoiyligni talab qilardi.

Yana shuni ham ta'kidlash joizki, Behbudiy Qur'oni Karimni bolalik davridanoq yod olgan bo'lishiga qaramay, muftiylik lavozimiga kirishguniga qadar ham Qur'on ilmlarini chuqur o'rganib borgan. Chunki Qur'on ilmlarini o'zlashtirmay turib, muftiy sifatida faoliyat yuritib bo'lmaydi albatta. "Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallam hazratlariga vahiy, ibtido "ro'yo sodiqa" tushlariga kelurdi" jumalari bilan maqolasini boshlaydi muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy. Qur'oni Karimning asosi ham "vahiy" tushunchasidir. Behbudiy tomonidan keltirilgan "ro'yo sodiqa" so'zlari "o'ngidan keladigan tush" ma'nosida qo'llanilgan. Payg'ambar (s.a.v.) ning tushlari o'ngidan kelishi, ko'rgan tushlari hayotlarida sodir bo'lishi haqida hadis ham mavjud. Demak muftiy Mahmudxo'ja o'z maqolasini Qur'onning asosi hisoblangan vahiy tushunchasi haqidagi ma'lumotlar bilan boshlagani bejiz emas. Chunki aynan vahiy tushunchasi Qur'onning ilohiy kitob ekanligini isbot qiladigan tushunchadir. O'ngidan keladigan tush Payg'ambar (s.a.v.)ga tushadigan vahiy turlaridan biri bo'lib, bu haqda Oisha (r.a.)dan quyidagi hadis rivoyat qilingan:

"Rosululloh (s.a.v.)ga boshlangan ilk vahiy uyqudagi solih tushdir. U zot biror tush ko'rsalar, tong yorug'idek aniq o'ngidan kelmay qolmas edi..."

Payg'ambar (s.a.v.) vahiy kelishidan avval Hiro g'origa chiqib, u yerda yolg'iz qolib bir qancha muddat turganlar. Hiro g'orida qilingan ibodat qu'ronshunoslikka oid ilmlar asosida "tahannus" ibodati deb ataladi.

So'ngra Mahmudxo'ja Behbudiy o'z maqolasida ilk nozil bo'lgan sura haqida so'z olib boradi va Payg'ambar (s.a.v.)ga farishta Jabroilning ilk vahiy keltirishini izohlab shunday deydi: "payg'ambarimizg'a malak tajalliy etib: "Iqro", ya'ni "O'qu" deb xitob yetdi. Bani zi shonimiz hazratlari "Ma ana biqoriin" – "Man o'quyolmayman" dedilar"¹.

Yana Qur'oni Karimning 23 yil davomida bo'lib-bo'lib nozil qilingani va bu vaqtda Payg'ambar (s.a.v) 40 yoshda bo'lganliklari haqida aniq ma'lumotlarga ham to'xtalib o'tadi. Qur'oni Karim haqida aytilgan salbiy fikrlarni qoralaydi va bu haqda shunday bayon qiladi:

"Qur'oni Karimni(ng) xilof va muqobilindagi barcha so'z va aqidalar botil va bekordur. Vaqtoki Qur'oni Karim oyat-oyat hazratimizg'a nozil bo'lur edi, u nuzul vaqtida payg'ambarimizg'a alohida bir holat ro'y berib terlab va ba'zan a'zo muboraklari bo'shab va qizorib, xulosa, ajib va g'ayrioddiy bir holg'a qolur edilar"².

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarida Payg'ambar (s.a.v)ning vahiy tushganidagi holatlarini ham qisqa, lo'nda va g'oyat tushunarli tarzda ifodalab bera olganini ko'rishimiz mumkin. Qur'on ilmlari doirasida Qur'onning rasmi xatti, uning yozilishi ham alohida bir ilm sifatida o'rganiladi. Behbudiy ham bu haqda yana ma'lumotlarni o'z maqolasida berib boradi. "Va ashob kiromdan hazrat Umar, Usmon, Ali, Talha, Abu Ubayda, Abu bin Ka'b, Zayd bin Sobit raziyallohu taolo anhumdek Qur'oni Karim kotiblari qirqdan ziyoda edilar" – deydi muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy. Bu haqdagi ma'lumotlarni davom etib, sahobalarning Qur'onni yod olishi va ulardan boshqalarning yod olganligi, Ubay bin Ka'b (r.a.) Qur'onni yoddan o'qishi, nozil bo'lgan oyatlarning vahiy kotiblari tomonidan taxta, tosh, teri, suyak, lavha kabilarga yozib borilganligini ham keltiradi.

Bundan tashqari zamoni saodatda qog'ozning mavjud bo'lmaganligi haqidagi sabablarni ham keltirib, nima uchun taxta, tosh, teri, suyak, lavha kabilarga oyatlarning yozilganini sabablari bilan izohlab bergan. Qur'oni Karimni jamlab borgan sahobalar sifatida Ubay bin Ka'b, Umar, Usmon, Ali, Zayd, Ibn Zayd, Ibn Mas'ud, Solim (r.a.)larni sanab o'tadi. Qur'oni Karimning zamoni saodatda kitobat holatiga keltirilishi sabablari va tarixini quyidagicha ifodalagan:

"Zamoni xilofat hazrat Abu Bakrda bir necha muhorabalar bo'lub, faqat "Yamoma" muhorabasinda Qur'onni hifz bilaturgan sahobalardan bir necha yuz kishi shahid bo'lgan uchun hazrat Umar ul-Foruqni mashvarat berishlari ilan hazrat Abu Bakr Qur'oni Karimni bilaturgon ko'b kishilardan, yana jam bo'lishi uchun vahiy kotiblaridan Zayd bin Sobit raziyallohu anhuni zeri saodatlarinda (Ubay bin Ka'b, Usmon, Ali, Abdulloh bin Abbos, Abdulloh bin Umar, Abdulloh bin Zubayr, Abdulloh bin Mas'ud, Abdulloh bin Soib, Xolid bin Valid, Talha, Sa'd, Huzayfa, Solim, Abu Hurayra, As-Somit, Abu Zayd, Abu Dardo, Abu Muso, Amr bin al-Os raziyallohu taolo anhum ajmain hazarotidek zabt va ittifoqlari mashhur bo'lgan huffoz (qori)lar kirom hazrat Umarni xonalarinda birinchi da'fa jam bo'lub, so'ngra doimo masjidi Madinada ushbu vajhdan ham bo'ur edilar. Biloli Habashiy raziyallohu anhu har kimda Qur'oni Karimdan yozilgan parchalar bo'lsa, kelturmoqni e'lon etdilar"³.

¹ Behbudiy, Mahmudxo'ja Tanlangan asarlar. J.2. – Toshkent: Akademnashr, 2021. 48-bet

² Behbudiy, Mahmudxo'ja Tanlangan asarlar. J.2. – Toshkent: Akademnashr, 2021. 48-bet

³ Behbudiy, Mahmudxo'ja Tanlangan asarlar. J.2. – Toshkent: Akademnashr, 2021. 49-bet

Mahmudxo'ja Behbudiy yuqorida o'z maqolasida nomlari keltirilgan Qu'ronni yodlagan sahobalar va kotiblar tomonidan komil bir "Mushaf" yozliganini aytadi. Komil mushaf yaratilganda sahobalar o'rtasida hech qanday bahs bo'lmaganini, qarama-qarshi fikrlar aytilmaganini, shuning uchun ham Mushaf komil mushaf sifatida shakllanganini bayon qiladi. "Va bu kungi Qur'oni Karim nusxalari shul "Mushaf"i sharifni aynidur" deb aytadi muftiy Mahmudxo'ja.

Bugungi kunda yurtimizda Toshkent shahridagi Hazrati Imom (hasti imom) majmuasida saqlanayotgan, yurtimizga tashrif buyurgan ziyoratchilar ehtirom ko'rsatib ziyorat qiladigan Usmon Qur'oni barchaga ma'lum. Aynan Usmon Mushafining yaratilishi haqida yana quyidagicha ma'lumotlarni keltiradi:

"Binobarin, hazrat Usmon Madinadagi 12 mingdan ziyoda sahobagoni kiromni jam etib, azvoji mutahharotdan ummu-l-mo'minin (Xafsa) raziyallohu anhudagi mazkur "Mushafi sharif"ni oldurub, kotiblar raisi Zayd bin Sobit ila Abdulloh bin Zubayr, Sa'd bin al-Os, Abdurahmon al-Horis bin al-Hishom hazarotini huzurlarinda avvalga "Mushaf"dan aynan to'rt nusxa yozdurub, birini o'zlari saxlab, boshqa uchini Ko'fa, Basra, Shomg'a yubordilar. Digar bir qavlg'a ko'ra, Yaman, Makka, Bahrayng'a ham bir nusxadan yozib yubordilarki, bu kun butun kurrai arzdagı Qur'oni Karim nusxalari va milliyonlarcha huffozi musulminning qalblarında mahfuz Qur'oni karimning hammasi bir va alhamdulillah hech bir ixtilof yo'qdur. Zamoni hazrat Usmonda yozilgan Qur'onlar bu kun Istanbul va Misrda aynan va tamoman mahfuzdur. Samarqandda ham bir nusxasi bor ediki, al-on bu Samarqanddagi nusxasi Petug'rod kutubxonai imperaturiyasında bo'lunub, ammo ba'zi sahifalari yo'qolgandur. "Inna nahnu nazzalnaz-zikra va inna lahu la hafizuun" al-oyatu".⁴⁵

Demak Mahmudxo'ja Behbudiyning Qur'oni Karimga oid maqolasida Usmon Qur'oni haqidagi ma'lumotlarni ham uchratish mumkin. Xulosa qilib aytganda, muftiy Mahmudxo'ja Behbudiyning ushbu maqolasida Qur'on ilmlariga oid bo'lgan zaruriy ma'lumotlar muxtasar, qisqa va tushunarli holatda, aniq ketma-ketlikda bayon qilingan. Bu esa o'z navbatida, Mahmudxo'ja Behbudiyning ushbu maqolasini chop ettirishi xalqimizni Qur'on ilmlaridan xabardor qilganini, zaruriy ilmlarni mo'min-musulmonlarga yetkazgani va bu ilmlarni puxta o'zlashtirganini anglatadi. Chunki shunday zaruriy ilmlarni aniq-ravshan, qisqa va muxtasar tarzda bayon qilish uchun avval yaxshi o'zlashtirishni talab qiladi.

Biz ham Qur'on ilmlariga qiziquvchilarni, Qur'onshunoslik ilmlarini o'rgangan va o'rganayotgan talabalarga va soha vakillariga muftiy Mahmudxo'ja Behbudiyning "Qur'oni Karim tarixiga bir nazar" nomli maqolasini o'qishni, o'rganishni tavsiya qilib qolamiz.

References:

1. Behbudiy, Mahmudxo'ja Tanlangan asarlar. J.2. – Toshkent: Akademnashr, 2021.-312 b.

⁴ Qur'on. 15:9. "Zikni Biz nozil qildik va uni saqlovchi ham Bizmiz".

⁵ Behbudiy, Mahmudxo'ja Tanlangan asarlar. J.2. – Toshkent: Akademnashr, 2021. 50-bet